Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Noyabr
№ 11, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNAL

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 277-sahifa.
2026-yil, №11. noyabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLAR

MUXITDINOV SHOHIJAHON HUDOYOR O‘G‘LI
Barqaror cho‘l turizmi klasterlarini rejalashtirish va boshqarishning ko‘p mezonli modeli.....15
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, OYYARIQOVA SABRINA ZOHID QIZI, RUSTAMOVA ZEBINISO BEHZOD QIZI
Tashqi iqtisodiy faoliyatni asosiy mazmuni.....24
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
Viza rejimini liberallashtirishning kiruvchi turizmga ta’sirini baholash: gravitatsiya modeli va mashinali o‘qitish uyg‘unligi.....33
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, YUSUPOV ALPOMISHBEK FAZLIDDIN O‘G‘LI, ZAFAROV OYBEK DILSHODOVICH
Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy elementlari.....39
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
O‘zbekistonda kiruvchi turizmning makroiqtisodiy ta’siri va uni dinamik panel model asosida prognozlash.....48
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, AZAMAT ABDULLAYEV AKBAR O‘G‘LI, XASANOV BEHRUZ MA’MURJON O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyatga berilgan imtiyozlar.....54
DJURAYEVA IRODA BAHROM QIZI
Raqamli to‘lovlarning yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi institutsional roli.....62
GAYBULLA KUCHKAROV
Qashqadaryo viloyatida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini baholash va hududiy tafovutlarni qisqartirish yo‘llari.....71
SAYDIRASULOV LAZIZ ALIMOVICH
Soliq imtiyozlarining fiskal samaradorligini baholash va soliq xarajatlarini optimallashtirish yo‘nalishlari.....79
SAIDAXMEDOV NEMAT XAMIDOVICH
Raqamli transformatsiya sharoitida hududiy klasterlarning innovatsion rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish.....92
AZIMJON MUSAMUXAMEDOV
A composite charity index for assessing philanthropic organisations under partial disclosure: preliminary evidence from Uzbekistan.....97
IMINOV ZAFARBEK
Andijon viloyatida bandlik tuzilmasi, norasmiy bandlik va yashirin ishsizlikning statistik tahlili.....110
RAIMJANOV DEMIR RAIMJANXOJI O‘G‘LI
Hududiy sanoatning eksport salohiyati omillarini ekonometrik baholash va prognozlash (Andijon viloyati misolida).....124

SANGIROVA UMIDA RAVSHANOVNA
Suv tejovchi innovatsion texnologiyalarni joriy etishning xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga tadbiq etish yo‘nalishlari.....136
SHUKUROV SOBIR MAMASOLIEVICH
Household financial vulnerability in Uzbekistan: debt burden, regional disparities and a stress test.....143
TURSUNOVA DILNAVOZ DAVRON QIZI
Oziq-ovqat sanoati tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligini integral indeks asosida baholash.....151
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, SHUKUROVA LOLA, O‘ROLOVA KAMOLA
Eksport-import operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.....161
MUROD KHASANOVICH ABULKASIMOV
Economic security challenges in Central Asia: trade integration, water resource risks and interstate cooperation.....166
ODILOVA SITORA SAYFITDIN QIZI
Meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rivojlantirishda raqamli marketing vositalaridan foydalanish.....175
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, ABDUG‘ANIYEV ORIFJON, XO‘JANOV SHODMON ASROR O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar maxsulotlarni inventarizatsiya jarayoni o‘tkazish tartibi.....182
SAFAROV BEXZOD ISMATOVIÇ
Tadqiqotçilarni motivatsiyalaşning nazariy yondaşuvlari va xorij tajribasi.....192
TURDIYEVA NIGORA AHMED QIZI
Yashil turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlari.....202
NUSRATILLOYEVA SHAHLO OLIM QIZI
Sun’iy intellekt sharoitida mehnat bozoridagi tarkibiy o‘zgarishlar: ijobiy va salbiy tendensiyalar tahlili.....210
DURUMOV TEMUR G‘OLIBOVICH
Sun’iy intellekt texnologiyalarini inson resurslarini boshqarish jarayonlariga joriy etish imkoniyatlari.....219
MAMADALIYEV ODILJON TOIROVICH
Hududlarni baholaş uçun yagona axborot bankini şakllantirişga doir yangiça yondaşuvlar.....227
UROQBOYEVA FARZUNA AXMADJONOVNA
Privatization of state assets through ipo: the uznif experience and its impact on Uzbekistan’s capital market.....237
ARZUOVA SHARGUL ANSATBAYEVNA, ABDIMURATOVA ALTINGUL KALBAEVNA
Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....245

YUSUPOV ZULUNJON ZIYOYDINOVICH
Asosiy vositalardan foydalanish hisobini takomillashtirishning metodologik va uslubiy yo‘nalishlari.....252
DURUMOV TEMUR G‘OLIBOVICH
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat resurslarini boshqarishning zamonaviy modellari.....263
JUMANIYOZOV FERUZBEK DILSHOD O‘G‘LI
Korxonalarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda menejmentning roli.....271
MAMATKULOV KAXRAMON CHORIYEVICH
O‘zbekistonda aholi turmush darajasi holati va dinamikasini statistik tahlili.....277

O‘ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASI HOLATI VA DINAMIKASINI STATISTIK TAHLILI

MAMATKULOV KAXRAMON CHORIYEVICH
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Malaka oshirish instituti Toshkent filiali
“Kasbiy tayyorgarlik”sikli, o‘qituvchisi mayor
E-mail: ramonqah0@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda aholi turmush darajasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, uni baholashning asosiy statistik ko‘rsatkichlar tizimi hamda 2021–2025-yillardagi dinamikasining o‘zgarishi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida aholi umumiy daromadlar, aholi umumiy daromadlar hajmi, hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi, rasmiy statistikasi ma’lumotlari asosida tahlil qilingan. Dinamika qatorlari tahlili keng ma’noda tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida aholi daromadlarini oshirish, inflyatsiya bosimini jilovlash va hududiy nomutanosibliklarni qisqartirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: aholi turmush darajasi, aholining umumiy daromadlari, hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi, statistik ma’lumotlar tahlili, dinamika qatorlari.

Аннотация. В данной статье анализируется социально-экономическая сущность уровня жизни населения в Узбекистане, система ключевых статистических показателей, используемых для его оценки, а также динамика этих показателей в период с 2021 по 2025 год. На основе официальных статистических данных в работе рассматриваются совокупный доход населения, его общий объем, а также показатели дохода на душу населения в разрезе регионов. Проведен комплексный анализ динамических временных рядов. По итогам исследования разработаны научно-практические рекомендации, направленные на повышение доходов домохозяйств, сдерживание инфляционного давления и сокращение региональных диспропорций.
Ключевые слова: уровень жизни населения, совокупный доход населения, совокупный доход на душу населения по регионам, анализ статистических данных и динамических рядов.

Abstract. This article analyzes the socio-economic essence of the population’s standard of living in Uzbekistan, the system of key statistical indicators used for its assessment, and the dynamics of these indicators from 2021 to 2025. The study examines the total income of the population, the overall volume of such income, and per capita income across different regions, based on official statistical data. A comprehensive analysis of dynamic time series was conducted. Based on the research findings, scientific and practical recommendations have been developed aimed at increasing household incomes, curbing inflationary pressure, and reducing regional disparities.
Keywords: standard of living of the population, total income of the population, per capita total income by region, analysis of statistical data, dynamic series.

KIRISH

Har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati pirovard natijada aholining farovonligini oshirish, munosib turmush sharoitlarini yaratish va inson kapitalini rivojlantirishga qaratiladi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida mamlakatimizni daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan mamlakatlar qatoriga kiritish, kambag‘allikni ikki baravarga qisqartirish hamda aholi real daromadlarining barqaror o‘sishini ta’minlash ustuvor vazifa etib belgilangan.

Aholi turmush darajasi ko‘p qirrali ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u nafaqat moddiy ne’matlar va xizmatlar bilan ta’minlanganlikni, ta’lim, sog‘liqni

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

saqlash, uy-joy sharoitlari, bandlik darajasi hamda ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini ham o‘zida mujassam etadi. Iqtisodiy islohotlar samaradorligini xolisona baholash uchun mazkur ko‘rsatkichlarning vaqt mobaynidagi o‘zgarishini chuqur statistik tahlil qilish, o‘sish sur’atlarini aniqlash va ta’sir etuvchi omillarni modellashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi — O‘zbekiston Respublikasida aholi turmush darajasining joriy holati va 2021–2025-yillardagi dinamikasini kompleks statistik tahlil qilish orqali farovonlikni oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Aholi turmush darajasini o‘rganish statistika sohasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala iqtisodiy nazariya, ijtimoiy statistika, mehnat iqtisodiyoti va inson taraqqiyoti konsepsiyalari doirasida keng tadqiq etilgan. Aholi farovonligini baholash bo‘yicha xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jumladan, iqtisodchi olim Amartya Sen o‘zining inson taraqqiyoti va imkoniyatlar yondashuvida farovonlikni faqat moddiy daromad bilan emas, balki insonning munosib hayot kechirishi, ta’lim olishi, sog‘lom yashashi va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi bilan bog‘liq holda izohlaydi. Uning yondashuviga ko‘ra, daromad inson farovonligini ta’minlovchi vositalardan biri hisoblanadi. J. Stiglitz, A. Sen va J.-P. Fitussi tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy taraqqiyotni baholash yondashuvlarida yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichining o‘zi aholi farovonligini to‘liq ifodalay olmasligi ta’kidlangan. Shu sababli daromadlar taqsimoti, iste’mol, sog‘liqni saqlash, ta’lim va hayot sifati ko‘rsatkichlarini birgalikda o‘rganish zarurligi asoslab berilgan.

Jahon banki tadqiqotlarida kambag‘allikni qisqartirish, mehnat bozorini rivojlantirish, aholining daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish aholi turmush darajasini oshirishning asosiy omillari sifatida ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston sharoitida esa aholi turmush darajasini statistik o‘rganishda Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan e’lon qilinadigan aholi daromadlari, iste’mol narxlari indeksi, bandlik, kambag‘allik va uy xo‘jaliklari statistik ma’lumotlari manbai hisoblanadi.

Xususan, Milliy statistika qo‘mitasining statistik ma’lumotlar bazasida 2021–2025-yillar davomida aholi umumiy daromadlari va jon boshiga daromadlar sezilarli oshgani qayd etilgan. Shuningdek, kambag‘allik darajasining pasayish tendensiyasi kuzatilgan.

1-jadval

Aholi umumiy daromadlari hajmi (mlrd.so‘m, yillik)

Davlat nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
O‘zbekiston Respublikasi	550747,3	667418,6	779085,7	954252,0	1134252,7

Manba: https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_321.pdf

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

TADQIQOT METODOLOGIYA

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasida aholi turmush darajasini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlarning 2021–2025-yillardagi dinamikasining o‘zgarishi o‘rganildi.

Tadqiqotning rasmiy axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy statistik ma’lumotlari, SIAT statistik axborot tizimi, Barqaror rivojlanish maqsadlari, Jahon bankining tegishli tahliliy materiallari hamda mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tashkil etdi.

Tadqiqotda aholi turmush darajasini baholash uchun quyidagi asosiy ko‘rsatkichlardan foydalanildi:

- aholi umumiy daromadlari;
- aholi jon boshiga umumiy daromadlar;
- real umumiy daromadlar o‘sish sur’ati;
- iste’mol narxlar indeksi;
- kambag‘allik darajasi;

TAHLIL VA NATIJALAR

2025-yilning yanvar-dekabr holatiga aholining umumiy daromadlari 1 134,3 trln.so‘mni tashkil etdi. Aholi daromadlari bo‘yicha real o‘sish sur’atlarini hisoblashda narx omillari ta’sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflyatsiya ko‘rsatkichlarining asosiy turlaridan biri – iste’mol narxlari indeksi (INI)dan foydalaniladi. Iste’mol narxlarining o‘zgarishi sababli o‘tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o‘sish sur’ati 109,2 % ni tashkil etdi.

2-jadval

Aholining umumiy daromadlari (2025-yil yanvar-dekabr)

	Hajmi	Nominal o‘sish sur’ati, % da	Real o‘sish sur’ati, % da
Aholining umumiy daromadlari, *trln so‘m*	1 134,3	118,9	109,2
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, *mln so‘m*	29,9	116,6	107,2

Manba: https://stat.uz/img/news/aoli-umumij-daromadlari_lotin--24_01_2025_p94578.pdf

2025-yilning yanvar-dekabr holatiga ko‘ra, aholi jon boshiga umumiy daromadlar 29,9 mln.so‘mni, aholi jon boshiga umumiy daromadlarning o‘sish sur’ati 116,6% ni va real o‘sish sur’ati 107,2 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi.

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida, aholi jon boshiga o‘rtacha umumiy daromadlar bo‘yicha Toshkent shahri (73 910,5 ming so‘m), Navoiy (44 694,2 ming so‘m), Buxoro (35 176,2 ming so‘m) va Xorazm (31 136,0 ming

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

so‘m) viloyatlarida o‘rtacha respublika darajasidan yuqori ko‘rsatkichlar qayd etildi. Aksincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi (20 656,0 ming so‘m) hamda Namangan (21 304,6 ming so‘m), Surxondaryo (22 572,2 ming so‘m), Jizzax (22 907,4 ming so‘m), Sirdaryo (23 339,5 ming so‘m), Qashqadaryo (23 517,5 ming so‘m), Samarqand (24 471,0 ming so‘m), Farg‘ona (24 582,7 ming so‘m), Andijon (26 275,9 ming so‘m) va Toshkent (29 830,9 ming so‘m) viloyatlarida aholi jon boshiga umumiy daromadlar bo‘yicha o‘rtacha respublika darajasidan quyi ko‘rsatkichlar qayd etildi.

3-jadval


Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (2025-yil yanvar-dekabr)

	Hajmi, ming so‘m	Real o‘sish sur’ati, % da
O‘zbekiston Respublikasi	**29 935,5**	**107,2**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	20 656,0	103,8
Andijon	26 275,9	100,6
Buxoro	35 176,2	108,0
Jizzax	22 907,4	105,0
Qashqadaryo	23 517,5	108,5
Navoiy	44 694,2	107,1
Namangan	21 304,6	105,7
Samarqand	24 471,0	106,2
Surxondaryo	22 572,2	106,5
Sirdaryo	23 339,5	106,7
Toshkent	29 830,9	104,4
Farg‘ona	24 582,7	114,8
Xorazm	31 136,0	108,7
Toshkent sh.	73 910,5	108,5

Manba: https://stat.uz/img/news/aoli-umumij-daromadlari_lotin--24_01_2025_p94578.pdf

Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o‘sishi Farg‘ona (14,8 %), Xorazm (8,7 %) viloyatlari hamda Toshkent shahrida (8,5 %) va Qashqadaryo (8,5 %) viloyatida kuzatildi.

Shu bilan birga Navoiy (7,1 %), Sirdaryo (6,7 %), Surxondaryo (6,5 %), Samarqand (6,2 %), Namangan (5,7 %), Jizzax (5,0 %), Toshkent (4,4 %) viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida (3,8 %) va Andijon viloyatida (0,6 %) aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o‘sish sur’atlari o‘rtacha respublika darajasidan past ko‘rsatkichni tashkil etdi.



Manba: https://stat.uz/img/news/aoli-umumij-daromadlari_lotin--24_01_2025_p94578.pdf


1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlari tarkibi (2025-yil yanvar-dekabr*)*

Hududlarning aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlari (yollanib ishlovchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar)ning eng yuqori ulushi Navoiy viloyatida (77,9 %) kuzatildi. Aksincha, Farg‘ona, Samarqand, Xorazm, Andijon, Surxondaryo viloyatlarida hamda Toshkent shahri va Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha respublika darajasidan past ko‘rsatkichni tashkil etdi.

Respublika bo‘yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi sezilarli darajada bo‘lmasada, Toshkent shahrida bunday daromadlarning ulushi 22,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, transfertlardan olingan daromadlarning ulushi Farg‘ona, Xorazm, Samarqand, Andijon, Surxondaryo, Qashqadaryo, Namangan, Buxoro viloyatlarida hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi umumiy daromadlariga nisbatan 30 % dan yuqori ko‘rsatkichni tashkil etgan bo‘lsa, Navoiy viloyatida mazkur daromad turining ulushi eng past ya’ni, 13,6 % ni tashkil etdi.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245



Manba: https://stat.uz/img/news/aoli-umumij-daromadlari_lotin--24_01_2025_p94578.pdf

2-rasm. Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibi (2025-yil yanvar-dekabr)

XULOSA

Statistik kuzatishning tahlillariga ko'ra O'zbekistonda 2021–2025-yillarda aholi turmush darajasi barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatdi. Kambag'allik darajasining 17,0 foizdan 6,8 foizgacha qisqarishi, iste'mol tarkibida xizmatlar va nooziq-ovqat tovarlari ulushining ortishi hamda Jini koeffitsiyentining 0,268 darajasida mo'tadil saqlanishi ijtimoiy yo'naltirilgan islohotlarning amaliy samarasidir. Shu bilan birga, hududlararo daromadlar farqi va inflyatsion kutilmalar farovonlikni yanada oshirishda asosiy chaqiriqlar bo'lib qolmoqda.

Aholi turmush darajasini yanada oshirish va statistik kuzatishni takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Hududiy nomutanosibliklarni qisqartirish: Daromad darajasi respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan past bo‘lgan hududlarda (xususan, Surxondaryo, Namangan viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida) yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi sanoat klasterlari va xizmat ko‘rsatish markazlarini tashkil etish orqali rasmiy bandlik ulushini oshirish.

2. Inflyatsion bosimni jilovlash: Aholi iste’mol savatida asosiy o‘rin tutuvchi oziq-ovqat mahsulotlari narxining mavsumiy tebranishlarini yumshatish uchun logistika zanjirlari va saqlash infratuzilmasini kengaytirish.

3. Statistik baholash metodologiyasini takomillashtirish: Milliy statistika amaliyotida aholi turmush darajasini baholashda nafaqat monetar ko‘rsatkichlarni, balki ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi (MPI) hamda subyektiv farovonlik (hayotdan qoniqish darajasi) indikatorlarini hududlar kesimida muntazam e’lon qilish tizimini kengaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlari. (stat.uz)

2. O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil “O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi” bo‘yicha rasmiy statistik axborotnomalari va hisobotlari.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

4. https://stat.uz/img/news/aoli-umumij-daromadlari_lotin-24_01_2025_p94578.pdf

2026-yil, noyabr. №11-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy